

Journal of Natural Science

*No1 (6)
2022*

<http://natscience.jspi.uz>



<u>ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p>Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p>Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p>Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none">1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц.2. Шилова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН)3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Белорусия ФА4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор7. Насимов А– СамДУ к.ф.д., профессор8. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор9. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц10. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б.11. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф.12. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д., проф13. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц.14. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц15. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц.16. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц17. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц.18. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD)19. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц20. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD)21. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц22. Муминова Н-ЖДПИ к.ф.н., доц23. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц24. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (ҳар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**O’QUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENSIYALARNI
ShAKLLANTIRISH.**

Almamatova Zebo-o’qituvchi

Abrorova Kumush-magistr

Uralova Gulshoda-talaba

Annotatsiya. Geografiya va ekologiya fanlarini o’tish jarayonida har bir mavzular asosida o’quvchilarda ekologik kompetensiyalarni shakllantirish.

Kalit so’zlar: ekologiya, kompetensiya, ekotizimlar, ko’nikma, malaka

Аннотация. Формирование экологических компетенций у студентов на базе каждого предмета при переходе к географии и наукам об окружающей среде

Ключевые слова: экология, компетентность, экосистемы, навыки, компетенции.

Annotation. Formation of ecological competencies in students on the basis of each subject in the process of transition to geography and ecology.

Keywords: ecology, competence, ecosystems, skills, competencies.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 12 iyul kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatalari, siyosiy partiyalar hamda O’zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig’ilishidagi ma’ruzasida, “...Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo’l bilan hal etib bo’lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin” deb alohida ta’kidlagan edi.

Davlat rahbarining ushbu so’zlari tabiatni e’zozlash va uni qadrlash bizga ajdodlarimizdan meros bo’lib, milliy qadriyatlarimizning qon tomiriga singib ketgan, asrlar osha ma’naviyatimizning bir bo’lagi sifatida shakllanganini, xalqimizdagi tabiatga bo’lgan ehtiromi beqiyos ekanini yosh avlod qalbiga singdirish lozimligini anglatishi bilan ahamiyatlidir.

Ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o’ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo’shishi zarurligi bilan belgilanadi.

Biroq, ekologik ta’limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta’limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to’liq ro’yobga chiqarishga to’sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko’rsatmoqda. Xususan:

- barcha turdagi ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o‘quvining majburiylikiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;
- amaldagi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;

Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillarini belgilash, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga izchillik bilan bosqichma-bosqich tatbiq qilish va shu asosda ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ularning ona tabiatning qayta tiklanmaydigan manbalarini saqlab qolish va ulardan oqilona foydalanish borasidagi mas’uliyatini kuchaytirish, ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish va ekologik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o‘quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo‘llashga o‘rgatish tushuniladi.

Ta’lim muassasasida umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari bilan birgalikda, o‘z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab ularni tushuna olish, bahsga kirishish, kundalik hayotda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘quvchi ushbu axborotlarni izlab topishi, tahlil qilish, bilim, ko‘nikma va malakalardan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlarini shakllantirish zarur.

O‘quvchilar ekologik kompetensiyalar-inson hayoti, turmush tarzi, xo‘jalik faoliyatiga tabiiy sharoitning ta’sirini, atrof – muhitning ifloslanishida tabiiy va antropogen omillarning ta’sirini, ozon qatlamining yupqalashuvini, madaniy va suniy landshaftlarning hosil bo‘lishini, tabiiy va sun’iy omillar ta’sirida vujudga keladigan – zilzila, vulqon, sel, surilma, nurash, eroziya kabi jarayonlarni, mahalliy, mintaqaviy, umumsayyoraviy ekologik muammolarni vujudga kelishini, xavfli tabiat hodisalarining (qurg‘oqchilik, qora sovuqlar, sel kelishi, suv toshqinlari) inson hayotiga xaf solayotganligini anglab yetish va xaf choralarini ko‘ra olish. Insonlarda ekologik ongni shakllantirish, butun borliqni asrab-avaylash hissini va ona tabiatga mehr o‘yg‘otishni shakllantirishdan iborat.

Masalan: 5- sinfda “Daryolar”, 7-sinfda “O‘zbekiston ichki suvlari va suv boyliklari” mavzulari berilgan. Mazkur mavzuni o‘rganish davomida o‘quvchilar

o'zlari yashaydigan hududidan oqib o'tuvchi daryo, kanal, anhorning suv miqdoridagi o'zgarishlarni kuzatadilar, ya'ni qaysi davrda ularda suvning to'lib yoki kamayib oqishi, daryoning oqim yo'nalishi va xarakteriga relyefning ta'sirini o'rganadilar, o'lchov lentasi yordamida kanal va anhorning kengligini va lot (uchiga yuk bog'langan ingichka arqon) yordamida ularning chuqurligini, sekundomer va suzgich po'kaklar yordamida oqim tezligini o'lchash ishlarini mustaqil bajaradilar. Shu bilan birga suv havzalarini ifloslantirmaslik uchun alohida tushunchalarga ega bo'ladilar. Bunda o'quvchilarda tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish, ekologik madaniyat, geografik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kabi fanga oid xususiy kompetensiyalar bilan birga, matematik savodxonlik va umummadaniy, kommunikativlik (geografik o'lchov birliklarini o'qish va yozish, gapirib berish) kompetensiyalari shakllantiriladi.

Shu bilan birga o'quvchilar fizika, matematika fanlaridan olgan bilimlariga tayanib suv (daryo, kanal) ning oqim tezligini ular tezlik formulasidan foydalanib aniqlab topadilar. Natijada Fizika faniga oid «Fizik kattaliklarni o'lchash va aniqlash», sekundomerdan foydalanishda esa «Fizik bilimlar va asboblardan amaliyotda foydalana olish» kompetensiyalari shakllanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, I sinfdan XI sinfgacha o'qitiladigan fanlar mazmuniga «Uy hayvonlari va parrandalari», «Yovvoyi hayvonlar», «Qo'riqxonalar, hududlarning o'simlik va hayvonot dunyosi», «O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, «Zararkunandalarga qarshi kurashish va ularni yo'qotish», «Sog'lom turmush tarzi me'yorlariga rioya qilish», «Ekologiya va hayot», «Atmosfera havosi va suvlarni muhofaza qilish», «Tabiat va uning boyliklarini asrash», «Biologik xilma-xillikni saqlash va uni ko'paytirish», «Atrof muhit chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olish» kabi mavzular orqali turli xil ko'rik-tanlovlar tashkil qilinsa o'quvchilarda ekologik kompetensiyalar xar tomonlama shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947 sonli farmoni.
2. O'.Nabiyev, M.Qaxxorova, D.Qoriyeva. Qishloq xo'jaligi, ekologik muammolar, Ilmiy ishlar to'plam. TDPU, Tosh., 2002g.
3. O'.Nabiyev, D.K.Muxamedjanova. Ta'lim va tarbiya jarayonida uzluksiz ekologik tarbiya. «Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal., № 5, Toshkent, 2008 y.